



SHAXS HAYOTIDA MOTIVATSIYANING ROLI

Otabayeva Fotima Kamol qizi

Stajor o'qituvchi Urganch davlat pedogogika instituti

tel:+998-90-431-14-05

Annontatsiya: Ushbu maqolada pedogogik adabiyotlarda keltirilgan inson hayotining muhim boshqaruvchisi bo'lgan motiv, motivatsiya, maqsad, qiziqish, ustunovkalar haqida o'zbek, rus va xorij psixolog olimlarining tadqiqotlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Motiv, motivatsiya, ehtiyoj, qiziqish, maqsad, mayl, ustunovka

Garchand psixologik adabiyotlarda ayniqsa yosh va pedagogik psixologiyaga oid rnanbalarda motiv va motivatsiya masalasi ko'p bora ko'tarilgan bo'lsa-da, batafsil yoritilmagan. Masalan, ayrim psixologlar maktabgacha yoshda ayrim tarqoq situasion mayllar ma'lum motivlar tizimlariga aylanib borishini qayd etadilar. Biroq bu fikr atroflicha chuqurroq o'rganilmagan. Shunga muvofiq adabiyotlarda psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida rnotiv va motivatsiya tushunchtisi turlicha talqin qilingan. Eng keng tarqalgan ta'riflarga ko'ra, motiv - bu kishini faoliyatga undovchi kuch, sabab yoki ehtiyojlar yig'indisidan iboratdir. **Motiv** tushunchasiga olimlar tomonidan quyidagicha ta'rif beriladi:

A.Maslouning fikricha, motiv bu ehtiyojlar yig'indisidir.

S.L.Rubinshteynning "motiv bu ehtiyojning his qilirdshi va qondirilishi" deb takidlaydi.

"Motivatsiya - bu psixika orqali amalga oshuvchi determinasiyadir" deb takidlaydi, S.L.Rubinshteyn.

A.N.Leontev - Motivni inson faoliyatiga yo'nalgan aniq ehtiyojlar va uni qo'zg'atadigan voqelik deb hisoblaydi. Motiv -ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga undovchi sabab.

V.S.Merlin motivlar tizimlarining ayrim jihatlarini ancha batafsil yoritib bergan. U motivlar tizimlarining shakllanish jarayonini quyidagicha tasavvur etadi: "Turli motivlar bora-bora o'zaro bog'liq va bir-biriga tobe bo'lib boradi hamda oxir oqibatdat motivlarning yaxlit tizimi vujudga keladi". V.S.Merlin fikricha, motivlar tizimining shakllanishi jarayonida nafaqat motivlar barqarorligi, balki motivlarni anglash kabi shartlar bajarilishini talab etiladi. Demak, V.S.Merlin bo'yicha motivlari tizimlari o'zaro bog'liq va bir-biriga tobe shaxs motivlarining bir butun yig'indisidan iborat.

Motivatsiya keng ma'noda inson hayotining murakkab ko'p qirrali boshqaruvchisi deb qaraladi,

Motivatsiya - insonni faoliyatga undashning rnurakkab, ko'p darajali tizimi bo'lib, u o'zida ehtiyojlarni, motiviarni, qiziqishlarni, ideallarni, intilishlarni, ustanovkalarni, emotsiyalami, normalarni, qadriyatlarai mujassamlashtiradi. Motivatsiya - murakkab tuzilma, faoliyatni harakatlantiruvchi kuchlar majmuasi bo'lib, u o'zini mayllar,



maqsadlar, ideallar ko'rinishida namoyon qiyadi va inson faoliyatini bevosita aniqlab, boshqarib turadi. Motivatsiya - odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmuidir.

Chet el olimlarining motivatsiya sohasidagi tadqiqotlari orasida G.Olportning motivlar funksional avtonomiyasi nazariyasi alohida o'rin egallaydi. Bu nazariyada motivlar transformasiyasi, tizimli rivojlanishi jarayon sifatida taiqin etiladi. G.Olport o'z konsepsiyasida tizimlarning umumiy nazariyasi g'oyalardan, ayniqsa, ochiq tizimlar haqidagi g'oyadan keng foydalangan. Oliming fikricha, shunday motivlar borki, ular yarim yopiq tizimlarning tabiatiga monand faoliyat ko'rsatadi va rivojlanadi, ya'ni funksional avtonomiyaga ega. Bir tizimga kiruvchi motivlarai Olport reaktiv, tashqi undovga rnuhtojlik qonunlariga bo'ysunuvchi motivlar, deb ataydi. Agar avvalgi tizim motivlarning perseverativ funksional avtonomiyasi, deb atalgan bo'lsa, keyingi tizimni G.Olport propriativ funksional avtonomiya, deb ataydi.⁴⁹

Respublikamizda ham motiv va motivatsiya ilmiy tadqiqot olib borayotgan olimlar tomonidan keng miqyosda o'rganib kelinmoqda. Jumladan V.A.Tokarevaning "Kichik maktab yoshidagi bolalarning ijtimoiy burchga nisbatan shaklanish psixologiyasiga" bag'ishlangan tadqiqotlarida o'quvchilar o'quv faoliyati motivlarini o'rganish borasida olib borilgan tadqiqotlarda va izlanishlarida burch motivini shakllanishiga jamiyataing ta'sirini o'rganish muhim ekanlidi ko'rsatib o'tiladi.

E.G.G'oziev tadqiqotlarida o'smir o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish xususiyatlari o'quv faoliyatini rejalashtirish, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini baholash jarayonlari baqida mulohaza yuritiladi.

A.A,Fayzallaev ilmiy tadqiqotlarida shaxsning motivasion o'z-o'zini boshqarishning turli-tuman omillari ham ko'rib chiqilgan. Aniqlangan bu omillar shaxs motivatsiyasining xususiyatlariga motivasion boshqarishning amalga oshirish usullari va natijalariga tegishlidir..

E.Z.Usmonovanning iimiy tadqiqotida o'quvchilarning o'quv faofiyati jarayonidagi qarama-qarshilik, motivatsiya, ijod va shaxs muammolari o'rganilgan. Tadqiqot davomida ikki asosiy motivatsiya toifasining munosibligini tushunish muhim bo'lgan.

F.I.Haydarovning "Qishioq maktabi o'quvchilarida o'qish motiviarining shakllanishi" nomli ilmiy izlanishlarida o'quv motivlari ularning xususiyatlari, o'qitish jarayonida ijobiy va salbiy motivlarning ta'siri keng qamrovda o'rganilgan. Shuningdek, muallif o'quvchilarning yosh xususiyatlariga bog'liq holda o'qish motivlarini namoyon bo'lishining regional tafovutiarni o'rganishga asosiy e'tiborni qaratgan. Muallifning ishlariga nazar tashlar ekanmiz, o'qish motivlarini bir qator turkumlarga ajratgani, ya'ni obro'ga intilish, muvaffaqiyatga erishish va boshqalarni yuzaga kelishiga ta'sir ko'rsatuvchi obyektiv, subyektiv omillarni, shuningdek rivojlanish mexanizmlarini ishiab chiqqanligini ko'ramiz. u esa ta'lim faoliyatida o'quvchiga samarali yondashish mezonini hisoblanadi.⁵⁰

Maqsad — inson amaliy faoliyatining avvaldan fikran o'ylangan natijasidir.

⁴⁹ F.I.Xaydarov, N.I. Xalilova "Umumiy Psixologiya" 262- bet

⁵⁰ Rivojlanish psixologiyasi va Pedagogik psixologiya



Maqsad insonlarga xos bo'lib, uni kelajakning loyihasi, deb ta'riflash mumkin. Ehtiyoj, manfaat, motiv individ yoki ijtimoiy guruh xulq-atvori, faoliyatining muhim tarkibiy qismlari bo'lsa, Maqsad faoliyat yo'nalishini belgilovchi elementdir. Maqsadning shakllanishiga sub'yektning ehtiyoj va manfaatlari kuchli ta'sir o'tkazadi. Maqsadning real va noreal, qisqa muddatli va uzoq muddatga mo'ljallangan, asosiy va ikkinchi darajali va boshqa turlari bor. Real Maqsadlar sub'yektning imkoniyatlari, atrof muhitning holati va ob'yektiv qonuniyatlarni hisobga olsa, noreal Maqsadlar faqatgina sub'yektning orzu-istaklarini ifodalaydi, atrofdagi vaziyatni hisobga olmaydi⁵¹.

Qiziqish — shaxsning o'zi uchun qimmatli va yoqimli bo'lgan muayyan narsa va hodisaga munosabati. Bunda insonning o'ziga xos xususiyati bevosita mujassamlashadi. Qiziqish bilimlarni ongli, puxta, barqaror, anglagan holda o'zlashtirishda, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda qo'l keladi, shaxs qobiliyati, zehni, uquvchanligini rivojlantirishga, olamni mukammalroq tushunishiga yordam beradi. Qiziqish insonda intilish, faollik, ichki turtki, ehtiyojni ro'yobga chiqarish manbai vazifasini bajaradi. Qiziqish shaxsning borliqqa tanlab munosabatda bo'lishida, o'ziga xos qaror qabul qilishida, o'zini - o'zi nazorat eta bilishida, maqsadga intiluvchanligida, yuzaga kelgan to'siqlarni yengishida ifodalanadi. Qiziqish shaxsiy va ijtimoiy, bevosita va bilvosita, keng va tor, beqaror va barqaror bo'ladi. Qiziqish sinchkovlik, qiziquvchanlik, bilishni o'z ichiga oladi. Odamlarni shaxsiy Qiziqishini idora qilishga o'rgatish, bu yo'nalishda mashqlantirish, treninglar, testlardan foydalanish intiluvchan, toliqmas xislatlarni shakllantirishga yordam beradi⁵².

Ehtiyoj A.Maslou ehtiyojlar ierxiyasi nazariyasi bilan mashhurdir. o'z nazariyasida A.Maslou ehtiyojlarning quyidagi ierarxik qatorini ajratadi; fiziologik ehtiyojlar, xavfsizlikka bo'lgan ehtiyoj, nmhabbat va boshqalar bilan bog'liq bo'lish ehtiyoji, hurmatga bo'lgan ehtiyoj, insoning o'z yashirin imkoniyatlarini to'laro namoyon etish va ro'yobga chiqarish ehtiyoqi va boshqalarni kiritadi. A.Maslou fikricha, muayyan ehtiyojning qondirilish uchun avval ierarxik qatorda undan oldingi ehtiyoj qondirilgan bo'lishi talab etiladi. Boshqacha qilib aytganda, A.Maslou konsepsiyasida ierarxiyada yuqori o'rinni egallovchi ehtiyojlar quyi o'rindagi ehtiyojlarga tobedir. A.Maslou konsepsiyasida motivasion jarayonlar boshqaruvida odam ongining ishtiroki, boshqaruvdagi roli e'tiborsiz qoldirilgan Maslouning ehtiyojlar piramidasi motivatsiya mavzusidagi eng mashhur nazariyalardan biri hisoblanadi. Gumanistik psixolog Abraham Maslouning fikricha, bizning xatti-harakatlarimiz ma'lum bir ehtiyojlarni qondirishga yo'nalgan. Maslou insonning hayotda o'z o'rnini topishi masalasiga alohida urg'u bergan, bu jarayon o'z yashirin imkoniyatlari haqiqatga aylanishi uchun uning shaxs sifatida o'sishi va rivojlanishidan iborat.

Mayl — tirik organizmning biror ehtiyojini qondirishga intilishi. U qo'msash, noaniq ichki dard, sababsiz zerikish tuyg'ulari tarzida kechishi mumkin. Intilish, havas, tilak, xohish, ishtiyok, hatto orzu ko'rinishlarida ham mujassamlashadi. U bajo

⁵¹ <https://uz.wikipedia.org/wik>

⁵² <https://www.wikiwand.com>



keltirilgan taqdirda kishiga mamnuniyat baxsh etadi. Mayl kishidagi qobiliyat yoki endigina shakllanib kelayotgan individual hislatlarning darakchisi sifatida erta namoyon bo'ladi. Mayllarning ba'zilari rivojlanib, shaxsiy ehtiyoj va qiziqishga aylanadi, ba'zilari esa tormozlanib, batamom barham topali yoxud birining o'rnini ikkinchisi egallayli. Ijodiy yo salbiy, kuchli yoki zaif, ko'lami keng yoki tor, barqaror yo o'tkinchi mayllar bo'ladi.

Ustonovka -Psixologiya fanida xulq-atvor va faoliyatga qaratilgan anglanmagan mayllar orasida muayyan darajada tadqiq etilgan ustanovka -ko'rsatma berish, muammosi hisoblanadi.Ushbu umumiy psixologik masalani gruzin psixologi D.N.Uznadze va uning shogirdlari tomonidan keng ko'lamda o'rganilgan.Ustanovka sei inglizcha so'z bo'lib, U ko'rsatma berish, anglanmagan mayllar, yo'l-yo'riq ko'rsatish ma'nolarida qo'llanib kelinadi. Odatda, ustanovka deganda, bilish faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan ehtiyojni ma'lum uslubda qondirishga ruhiy jihatdan tayyorlik tushuniladi. Ustanovka shaxsning o'zi anglab yetmagan muayyan ruhiy holati yoki maylidir. Bunday holatda shaxs biron bir ehtiyojni qondirish mumkin bo'lgan ma'lum faoliyatga ruhan tayyor turadi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, motivatsiya borasida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Aynan motivatsiya sababli inson faol faoliyat bilan shug'ullanadi , ko'plab yutuqlarga erishadi. Inson hayotining ko'p tomonlama qamrab olgan boshqaruvchi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. F.I.Xaydarov, N.I. Xalilova "Umumiy Psixologiya" 262- bet T.2017
2. Z.T.Nishonova,N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva,M.X.Xolnazarova "Rivojlanish psixologiyasi va Pedagogik psixologiya "T.2018
- 3.<https://uz.wikipedia.org/wik>
- 4.<https://www.wikiwand.com>
- 5.<https://slidetodoc.com>